

# TONGYULDUZI

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

## yulduzi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

2010-yil  
6-dekabr  
N:49  
(66798)

ISSN – 2010-6092

# Oftob kitobim mening

## 8-Dekabr – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni



Qadrli o'quvchilar, gazetamizda yaxshi bir an'ana yo'lga qo'yilganidan xabaringiz bor. «Barkamol avlod yili» munosabati bilan Xorazm, Farg'ona, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlariga bag'ishlangan maxsus sonlarni e'tiboringizga havola etgandik. Bugun poytaxtlik o'quvchilar hayoti va ularning qo'lga kiritayotgan yutuqlari bilan sizlarni yaqindan tanishtirish maqsadida Toshkent shahri bo'ylab safarga o'tlandik.

## SHOSH – CHOCHNING POYTaxTI

Toshkent shahri 2200 yillikdan ziyod tarixi davomida mudofaa devori bilan o'ralgan qadimiy qal'adan jahondagi yirik poytaxt shaharlardan birigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Shahar necha bor vayron bo'lib, qayta qad rostladi.

Toshkentning uzoq o'tmishi va u qad ko'targan qadimgi Choch yoki Shosh viloyati haqidagi ma'lumotlar yozma manbalarda juda xilma-xil aks ettirilgan.


Toshkent haqidagi dastlabki aniq ma'lumotlar Xitoy manbalarida uchraydi. Ularda Toshkent viloyati qadimda Loyuyeni, Yuni, so'ngra Chjeshe, Chjechjen, Chjesi va Shigo deb nomlangan. Bu atamalar «Choch» so'zining xitoycha talaffuzi natijasida hosil bo'lib, hatto oxirgi «Shi» toponimi xitoychada «Tosh» ma'nosini anglatadi.

Arab manbalarida Chochning poytaxti «Madinat ush-Shosh» (Shosh shahri) deb ko'rsatilgan. Choch poytaxti hunarmandlari metallardan mehnat qurollari, yarog'-aslahalar, zeb-ziynat va ro'zg'or buyumlari yasashgan, ko'pchilik bilan shug'ullanishgan, paxta va jundan matolar to'qishgan, sopol va shisha idishlar, zargarlik buyumlari yasab, ichki va tashqi savdoni ta'minlashgan.

Toshkentning eng gavjum qismi uning bozorlari hisoblangan. Eskijo'va, Chorsu va Ko'kaldosh madrasasi oralig'ida Registon, Chorsu va Kappon bozorlari joylashgan.

Bu davrda shahar aholisi 80 ming kishini tashkil etgan. Lashkar Qushbegi davrida shahar atrofi bo'yab Qo'yimas, Qo'qon, Qashqar, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag'bon, Chig'atoy, Ko'kcha, Samarqand, Kamolon va Beshyog'och kabi 12 darvozasi bo'lgan. Har bir darvozadan shahar markazi – Registon bozoriga eltuvchi ko'chalar, ulardan esa ko'plab tor ko'chalar tarqalib ketgan.

Toshkent qadimdan tinchlik, do'stlik shahri sanaladi. U doimo o'zbek millatiga xos saxovat va insonparvarlikning ramzi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.



## BILIMLAR OLAMIDA

Poytaxtimiz Toshkentda yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun 873 ta ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Ulardan 292 tasi umumta'lim maktablari, 5 ta «Mehribonlik uy»lari, 455 tasi maktabgacha ta'lim muassasalari, 21 tasi maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, 30 tasi musiqa va san'at, 30 tasi bolalar va o'smirlar sport maktablari. Poytaxt maktablarida ta'lim o'zbek, rus va qozoq tillarida olib boriladi.

Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi doirasida 2004–2009-yillarda shahardagi 248 ta maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Zamonaviy talablar darajasida bunyod etilgan 4 ta yangi maktab binosi o'g'il-qizlarimizni o'z bag'riga oldi. 17 ta maktabda rekonstruksiya, 115 tasida

kapital va 112 tasida joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Mazkur yillar davomida 248 ta maktabni mebel va o'quv laboratoriya asbob-uskunalari bilan to'la jihozlashga erishildi.

Musiqa va san'at insonni ezgulik sari yetaklaydi. Musiqa va san'atga ixtisoslashgan maktablarga qaratilgan alohida e'tibor bugundanoq o'zining shirin mevalarini bera boshladi. Yosh san'at ixlosmandlarining dunyo miqyosida qo'liga kiritayotgan katta muvaffaqiyatlari buning yorqin namunasidir.

2009–2010-yillarda poytaxt maktablarini 39398 nafar o'g'il-qizlar bitirib, o'qishni davom ettirish uchun akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari jalb etilgan.

Barkamol avlodning voyaga yetishida jismoniy barkamollik ham alohida ahamiyatga ega. 2003–2010-yillar mobaynida 69

ta sport inshootlari barpo etilib, yosh sportchilar ixtiyoriga topshirildi. Mazkur sport maktablarida shug'ullanayotgan bolalar respublika va xalqaro musobaqalarda qatnashib, sovrindorlar safidan munosib o'rin egallamoqdalar.

Poytaxtimizda joylashgan «Mehribonlik uy»lari tarbiyalanuvchilarini katta hayotga yo'llash borasidagi ishlar ham alohida nazorat ostida. Ularning litsey va kollejlarda tahsil olishlari uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan.

Texnika asrimizda zamonaviy texnologiyalar hayotimizning ajralmas bir qismiga aylandi. Shahardagi 292 ta umumta'lim maktablarida 285 ta kompyuter sinflari tashkil etilgan. 252 ta maktab esa internet tarmog'iga ulangan.

Bugungi kunda yoshlarning ma'naviy olamini boyitish, ajdodlar merosiga munosib voris bo'lib voyaga yetishlari uchun ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Poytaxt maktablarida taniqli insonlar, ijodkorlar bilan doimiy uchrashuvlar o'tkazib turish yaxshi an'anaga aylangan. Turli xil tanlovlar, adabiy kechalar ularning dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Buyuklikni ma'naviy boylik, bilim belgilaydi, degan gap bor. Bugungi kunda mamlakatimizning har bir go'shasidagi maktablarda o'quvchilarning puxta bilim olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Poytaxtlik o'quvchilar ham bilimlar olamiga dadil qadamlar bilan kirib bormoqdalar.

## MADHIYA – G'URURIMIZ!



Shayxontohur tumanidagi 167-maktabda ko'plab tadbirlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylanib qolgan. Shu kunlarda mazkur bilim daroghida umumjahon OITS ga qarshi kurash kuni munosabati bilan ko'plab tadbirlar o'tkazilyapti. Kuni kecha sog'lom avlod asoslari fani o'qituvchisi Nigora

Sobirova boshchiligidagi 8-«A» sinfda «OITS – asr vabosi» mavzusida ochiq dars bo'lib o'tdi. Ustoz o'quvchilarga bu ofatga qarshi kurashda ta'lim tizimining o'rni, profilaktika chora-tadbirlari xususida gapirib berdi. O'quvchilar suhbat davomida bu bedavo xastalikka chalinmaslikning eng maqbul yo'li – sog'lom turmush tarzi ekanligini anglab yetishdi.

Ayni paytda o'quvchilar 10-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kunga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbirga qizg'in hozirlik ko'rishyapti. Zero, madhiyamiz Prezidentimiz ta'kidlaganidek, O'zbekiston xalqining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi, intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi.

## QIZLARGA YARASHMAYDI



Yaqinda bozorda bir voqeaning guvohi bo'ldim: chamas o'n olti, o'n yetti yoshlardagi qiz ovozinin boricha baqirib:

– Bu kiyim menga kerak emas, o'zingiz kiying, katta xolamdan qolgan o'xshaydi-ku! – deya onasiga qo'p muomala qilardi. Hayrat bilan yoqa ushladim. Nahotki, millatimiz g'ururi bo'lgan Oybachindek qizlarimiz shunchalik tarbiyasiz bo'lib ketishgan?! Ular To'maris, Nodirabegim, Uvaysiy, Zulfiyaxonimga munosib avlod bo'lish o'rniga, qandaydir chet elning bema'ni kiyimlariga intilib, o'z onalarini ranjitishsa... Menimcha, arzimagan kiyim uchun onani ranjitib, qo'pol so'zlar ishlatish bizning o'zbek qizlarimizga yarashmaydi.

Ayni damda yoshlar barcha e'tiborlarini bilim olishga qaratib, komil inson bo'lib ulg'ayishlari lozim. Buni nazorat qilish esa biz ota-onalar, ustoz-u murabbiylar qo'lida.

Umida HAKIMOVA,  
Toshkent bank kolleji o'qituvchisi



**Poytaxtimizning ko'rkam ko'chalaridan biri Navoiy ko'chasida muhtasham, zamonaviy binolar talaygina. Ana shunday binolar qatoridan Respublika «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi ham joy olgan. Bu maskandagi aka va opalaringiz Siz aziz o'quvchilarning barkamol avlod bo'lib voyaga yetishingiz, dunyoqarashingizni kengaytirishingiz, qiziqish va intilishlaringizni qo'llab-quvvatlash uchun tinmay mehnat qiladilar. Iqtidorli va qobiliyatli o'quvchilarni o'zlariga miqyosdagi festival va tanlovlarda ishtirok etishlari uchun ko'plab tadbirlar o'tkazib turadilar.**

# BAXTIMIZ POYDEVORI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18 yilligiga bag'ishlab «Konstitutsiyamiz – baxtimiz poydevori» shiori ostida o'tkazilgan ko'rik-tanlov ham ana shunday tadbirlar sirasiga kiradi. Ushbu tanlovda respublikamizning 42 nafar iqtidorli o'quvchilari o'zlarini chizgan suratlari va fotosuratlari bilan ishtirok etdilar.

Tanlovda ishtirokchilar foto, rasm hamda erkin mavzu yo'nalishlari bo'yicha bellashdilar. Foto yo'nalishi ishtirokchilari «Biz hech qachon, hech kimdan kam bo'lmaymiz» mavzusida o'zlarini fotosuratlari bilan

qatnashdilar. Ular tashkilotchilar tomonidan ko'rsatilgan biron-bir manzaraning ko'rinishini rasimga olib, 5 daqiqa vaqt ichida olgan fotosuratlar haqida og'zaki bayon qildilar.

O'quvchilar rasm yo'nalishida ishtirok etib, shaharning manzarali joylaridan birini, shu bilan birga turli buyumlar rasmni chizib, iqtidorlarini namoyon etadilar.

Erkin mavzu yo'nalishida esa ishtirokchilar milliy urf-odatlar va qadriyatlarimiz, yurtimiz go'zalligi, tabiatning beqiyos in'omlari, hayvonot va o'simliklar olami, mustaqillik davrida erishilgan yutuqlarga oid tasavvurlarini qog'ozga tushirdilar.

Hay'at a'zolari o'quvchilar ishlarini baholab, foto yo'nalishi bo'yicha 1-o'ringa Xorazm viloyati, Yangibozor tumanidagi 12-maktab o'quvchisi Ulug'bek



**Durdona ASROROVA, 2-o'rin sohibasi:**  
– Men 5-sinfda o'qiyman. Erkin mavzu yo'nalishida «Natyurmort», «O'zbekiston tabiati» nomli rasmlarim bilan ishtirok etib, 2-o'rinni qo'lga kiritdim.



**Marianna SHAXNAZARYAN, 3-o'rin sohibasi:**  
– Tanlovga olib kelgan toshdan ishlangan ijodiy ishim 3-o'ringa loyiq topildi. Buning uchun barcha ustozlarimga minnatdorchilik bildirmoqchiman.

42-maktab o'quvchisi Yulduz Xolmetova, 2-o'rinni Navoiy viloyatidagi 3-maktab o'quvchisi Alisher Yo'ldoshev, 3-o'rinni Qashqadaryo viloyatidagi 96-maktab o'quvchisi Nargiza Sattorovalar qo'lga kiritishdi.

Erkin mavzu yo'nalishi bo'yicha 1-o'rin Buxoro tumanidagi 12-maktab o'quvchisi Nodira Sharipovaga, 2-o'rin Jizzax tumanidagi 22-maktab o'quvchisi Durdona Asrorovaga, 3-o'rin esa Toshkent shahridagi 101-maktab o'quvchisi Marianna Shaxnazaryangana nasib etdi.

**Biz ham g'oliblarni muvaffaqiyatlari bilan samimiy qutlab, ularga kelgusi ijodlariga omad tiladik.**

Diyora JO'RAYEVA,  
Yunusobod tumanidagi  
260-maktab o'quvchisi

## SIYOSIY BILIMLARIMIZ OSHADI

Kuni kecha «Toshkent oqshomi» gazetasiida Yurtboshimizning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasini o'qib qoldim. O'qiyapman-u, undagi qonunchilik tashabbuslari mening zimnamga ham katta mas'uliyat yuklayotgandek edi, nazarimda.

Ushbu «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» tom ma'noda demokratik ruh va insonparvarlik uyg'unligida jamiyatimizning eng

muhim, ustivor vazifalarini belgilab beradi.

Saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya taqdim etgan Bosh vazir nomzodi Prezident tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi haqidagi konsepsiyaning belgilanishi, siyosiy tizimni modernizatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar mamlakatimizni demokratlashtirishda yangi bosqichni boshlab beradi.

Ma'ruzada shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari tizimida OAV o'rini yanada mustahkamlash, fuqarolarning so'z va tanlash erkinligini ta'minlash bizing konstitutsiyaviy huquqlarimizni

ro'yogga chiqarishda yordam berishi ham alohida ta'kidlab o'tildi.

Yaqinda universitetimizda ushbu ma'ruza yuzasidan senatorlar va deputatlar ishtirokida anjuman bo'lib o'tdi. Unga senat a'zosi, O'zMU rektori G'ofurjon Muhammadov boshchilik qildilar.

Qizg'in bahs va munozaralar tarzida o'tgan mazkur anjuman biz talabalarning siyosiy-huquqiy bilimlarimizni boyitish, ijtimoiy faolligimizni oshirishga xizmat qiladi.

Dilafruz USMONOVA,  
O'zMUning 2-bosqich talabasi



## KATTA BIR TUMANDA...

*Sobir Rahimov tumani poytaxtimizning eng katta tumanlaridan sanaladi. Bu yerdagi 32 ta umumta'lim maktablarida 39.250 nafar o'g'il-qiz tahsil oladi. Shuni e'tiborliki, bu ta'lim maskanlarining aksariyati fanlar chuqur o'qitiladigan, ixtisoslashtirilgan maktablar sanaladi. 1-, 22-, 29-maktablarda arab tili, 24-maktabda hind tili, 119-maktabda fors tili, 28-maktabda kimyo-biologiya, 159-maktabda fizika fani chuqur o'qitiladi. 326-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabiga esa o'quvchilar 2-sinfdan Davlat test markazining test sinovlari asosida qabul qilinadilar.*

Tuman xalq ta'limi bo'limining 2010-yilga mo'ljallangan ish rejasida ko'rsatilgan vazifalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar xususida tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Muhayyo G'ANIXO'JAYEVA quyidagilarni gapirib berdi:

– So'zimning avvalida tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumta'lim maktablarining barchasi «ZiyoNET» tarmog'iga ulangani, har bir maktab o'z veb-saytini yaratganini mamnuniyat bilan ta'kidlamoqchiman. 3 ta maxsus maktab-internatda, 32 ta umumta'lim maktablari hamda 55 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida «veb-maktab» sahifalari ochilib, ular doimiy ravishda yangilanib borilmoqda. Shuningdek, 8 ta umumta'lim maktablarida 18 nomdagi elektron darsliklar va filmlar mavjud bo'lib, tumandagi barcha maktablarda ulardan maqsadli foydalanish tizimi yo'lga qo'yildi.



Biz farzandlarimizning nafaqat ta'lim-tarbiyasiga, balki salomatliklariga ham mas'ulmiz. Shu ma'noda ta'lim muassasalari o'quvchilaridan 24.751 nafari tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Uning natijalariga ko'ra, o'quvchilarimizning 7817 nafari ambulatoriyada, 413 nafari shifoxonada, 165 nafari sanatoriyada davolandilar.

Farzandlarimiz qanday bo'lishlaridan qat'iy nazar, biz uchun azizdirlar. Sog'lommi, imkoniyati cheklanganmi, ular uchun yaratilgan barcha imkoniyatlardan birdek foydalanish huquqiga egadirlar. Shu maqsadda, imkoniyati cheklangan bolalarning ommaviy maktablarda o'qitilishi «Maktab – barchaniki» dasturi asosida olib borildi. Maxsus 100-, 102-, 106-maktab-internatlarda hamda 36-yordamchi maktabda nogiron o'quvchilarning ta'lim-tarbiya olishlari uchun zarur sharoitlar yaratilgan.

Tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan uyda yakka tartibda o'qitiladigan 10 nafar o'quvchini shaxsiy kompyuterlar bilan ta'minlash rejalashtirilgan bo'lib, homiylar tomonidan taqdim etilgan kompyuterlar ularning uylariga yetkazildi.

«Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi – 2010» ko'rik-tanlovining shahar bosqichida ishtirok etgan o'qituvchilaridan 10 nafari 1-, 2-, 3-sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritishdi.

O'quvchilarimizning bo'sh vaqtlarini to'g'ri va mazmunli tashkil qilish, ularning sog'lig'ini mustahkamlash maqsadida 8 ta sportga yo'naltirilgan maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyati ko'rsatmoqda. Ularda 23.117 nafar o'g'il-qiz sevimli sport turlari bilan shug'ullanib, ommaviy tadbirlarda qatnashib kelmoqdalar. Shuningdek, 2.378 nafar o'quvchilar muzeylar bo'yab sayohatga jalb etilib, u yerda o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlari-miz e'tirof etilib, televideniye hamda respublika matbuoti sahifalari orqali ibrat tariqasida keng yoritilyapti. Bu esa kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shyapti...

Muhayyo opa tuman miqoyasida amalga oshirilayotgan ibratli ishlar haqida

yana uzoq gapirdilar. Ishi borning gapi ham ko'p bo'ladi, axir!

*Opaga o'ta mas'uliyatli va xayrli ishlarida muvaffaqiyatlar tilab, xayrlashdik.*

Ushbu ma'xusus sonni tayyorlash jarayonida Yakkasaroy tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri Umidbek Ibrohimov bilan telefon orqali bog'landik. Maqsadimizni anglagan mudir tumandagi bir nechta eng ibratli maktablarni sanab o'tdilar.

Tabiiyki, biz ham ulardan biri 144-maktab hayoti va faoliyati bilan qiziqdik.

## MUOMALASI IPAK, TALABI TOSH

Bu iborani mazkur maktab o'qituvchilariga nisbat qilsak xato bo'lmaydi. Muomalasi ipak, talabi tosh ustozlar o'quvchilarga bilim berishga, hunar o'rgatishga astoydil kirishganlar. O'quvchilar ham respublika miqyosidagi tanlovlarda faol ishtirok etib, ustozlari ishonchini oqlashyapti.

O'tgan o'quv yilida maktab o'quvchilari fan olimpiadasining tuman, shahar bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritishgandi. 9-«A» sinf o'quvchisi Marjona Jo'rayeva «Til borki, o'lmaydi millat» shiori ostida o'tkazilgan insholar ko'rik-tanlovining shahar bosqichida 3-o'rin sohibi bo'ldi. Tuman miqyosida o'tkazilgan festivalning «Qo'lida yasalgan ko'rgazmali qurol» yo'nalishida qatnashgan o'quvchilar esa 2-o'rinni qo'lga kiritishdi. «Zulfiyaxonim qizlari» ko'rik-tanlovining tuman bosqichida musiqa yo'nalishi bo'yicha Malika Hamroyeva, she'riyat yo'nalishida Shohsanam Jo'rayevalar g'olib bo'lib, shahar bosqichiga yo'llanma oldi.

«Yangi avlod – 2010» Respublika bolalar ijodiyot festivalida 6-«V» sinf

o'quvchisi Behzod Abdujabborov skripka chalish bo'yicha tumanda 1-o'rinni, 5-«V» sinf o'quvchisi Shohista Navro'zova vokal yo'nalishi, she'riyat yo'nalishi bo'yicha 7-sinf o'quvchisi Nurjahon Ubaydullayeva Respublika bosqichida qatnashib, festival laureati bo'lishdi.

Respublika tanlovi g'olibi Mashrabxon Umarova «Ustozshogird» maktabini tashkil etdi. Bu kabi xayrli ishlarga maktab rahbari Gulchehra Rasulova bosh-qosh.

O'z shogirdlariga ibrat bo'layotgan fidoyi va bilimdon ustozlar qo'lida kamol topayotgan o'quvchilar orasida iqtidorlilari talaygina ekanligiga shubha qilmadik. Zero, o'tkir zehnlil, bilimdon, odobli farzand nafaqat oilaning, balki xalqning, Vatanning mustahkam tayanchidir.



## KOMILLIK ILMI

Maktabda darslarini yomon o'zlashtiradigan «ikkichi» o'quvchini ko'z oldimizga keltiraylik. U doimo darslarga kech keladi, kiyimlarini ozoda tutmaydi, darslarda qandaydir tartibsizliklarni, shovqin-suronni boshlab yuboradi. Xo'sh, nega shunday? Biz pedagoglar bu savolni o'zimizga tez-tez berib turishimiz kerak.

Bolaligimda bo'lib o'tgan voqea esimga tushdi: «ikkichi» sinfdoshimiz bo'lardi. Hamma undan o'zini olib qochardi. Maktabimizga yangi «tasviriy san'at» fani o'qituvchisi keldi. U juda zamonaviy kiyinar, gaplashish tarzi ham o'ziga xos edi. Yangi o'qituvchini ko'pchilik yoqtirib qolgandi.

Bir kuni «ikkichi» sinfdoshimiz kir-chir holatda darsga kechikib kirib keldi. Hamma uning ahvolidan kulib yubordi. Biz hozir o'qituvchimiz uni urishib bersa kerak, deb o'ylagandik. Lekin unday bo'lmadi. Rassom o'qituvchimiz unga boshdan-oyoq ko'z yugurtirib chiqdi-da: «Nega darsga kech qoldingiz?» deb so'radi. Biz o'qituvchimizning unga ham «siz»lab murojaat qilganidan ajablандik. O'shanda bu muomaladan sho'rlik sinfdoshimiz yig'lab yuborgandi. Keyin u joyiga o'tirishga ruxsat oldi. Shu kuni o'qituvchimiz, kelgusi darsga hamma o'zi yoqtirgan joni-vorning rasmini chizib kelsin, dedilar. O'qituvchimiz «ikkichi»ning yoniga borib,

«Siz itlarni yaxshi ko'rarkansiz, men ham ularni yaxshi ko'raman. Qani, ularni chizishga bir urinib ko'ring-chi», deya alohida topshiriq berdilar. Keyingi darsimizda «ikkichi» biroz o'xshamasada, ixlos bilan itning rasmini chizib kelgandi. O'qituvchimiz uning daftariga «5» baho qo'ydi. Bu uning birinchi besh bahosi edi. Keyin u ko'z o'ngimizda o'zgara boshladi. Kiyimlarini ozoda tutadigan, dazmollab kiyadigan, hatto atir sepi yuradigan bo'lib o'zgardi. Uni ko'pincha tasviriy san'at o'qituvchimiz bilan nimalarnidir berilib gaplashayotganini ko'radik. Keyinchalik «ikkichi» sinfdoshimiz rassomchilik bilim yurtiga o'qishga kirdi. U birgina e'tibor tufayli katta rassom, qolaversa, haqiqiy inson bo'lib yetishdi.



## MA'NAViy BOYLIgIMIZ

Biz o'quvchilar «Tong yulduzi» gazetasini sevib o'qiyimiz.

Tanaffus paytida, tarbiyaviy soatlarda undagi maqolalarni muhokama qilamiz, boshqoturmamiz yechamiz. Qiziq hikoyalardan esa o'zimizga kerakli xulosalarni chiqaramiz.

Ayni kunlarda sevimli gazetasimizga maktabimiz o'quvchilarining

ko'pchiligi obuna bo'lishmoqda. Ularining safi bilan qiziqdim.

3-sinflarda 15 nafar, 4-sinflarda 25 nafar, 5-sinflarda 30 nafar, 6-7-sinflarning har birida esa 32 nafardan, 8-sinflarda 28 nafar o'quvchi «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldi.

Siz ham shoshiling! Zero, ma'naviy boylik insonning ziynati.

**Shirinoy TO'RAYEVA,**  
Hamza tumanidagi  
216-maktabning  
7-«A» sinf o'quvchisi

## BIR-BIRIMIZNI QO'LLASAK...

Maktabimiz o'quvchilari rus tili faniga juda qiziqishadi. Bu qiziqishlari ularning darslarda faol qatnashishlari, darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlardagi faol ishtiroklari, rus tilida she'r va monologlarni yod olishlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu bois ham o'quvchilarimiz rus tili fani oyligini intizorlik bilan kutishadi.

Bu yilgi fan oyligi ham qiziqarli tarzda o'tdi. Oylikning har bir haftasi alohida nomlanib, tadbirlar, ochiq darslar o'tkazildi. «Ertaklarning sehrli olani» deb nomlangan birinchi haftalikda o'tkazilgan rasmlar va devoriy gazetalar ko'rgazmasi, insholar tanlovida o'quvchilar faol ishtirok etishdi. Ikkinchi va uchinchi haftada ochiq darslar, to'rtinchi haftada KVN, «Quvnoqlar va zukkolar», «Kuz guldastasi» festivallari bo'lib o'tdi.

Maktabning rus tili fani o'qituvchilari Lobar Shukurova, Jamila Toirovalar sa'y-harakati bilan qiziqarli va mazmunli tarzda o'tgan mazkur oylikda faol ishtirok etgan o'quvchilar munosib taqdirlandilar.

Bir-birimizni qo'llab ishlasak, ishimiz unumli bo'ladi, shunday emasmi?!

**Dilfuza TO'XTAXO'JAYEVA,**  
Hamza tumanidagi 198-maktabning rus tili fani  
o'qituvchisi

**Dilnoza RAHIMOVA,**  
Toshkent moliya va iqtisodiyot  
kolleji psixologi

## SHIORIMIZ – INTILISH

Guanchjou Xitoyning eng go'zal shaharlaridan biri ekanligini nafaqat sportchilarimiz balki, biz ham bilib oldik. Chunki bu yerda bo'lib o'tgan XVI Osiyo o'yinlarini oynayti jahon orqali kuzatib bordik. Bellashuvlarda dunyoning 45 ta mamlakatidan ishtirok etgan kuchli sportchilar qatorida o'zbekistonliklar ham munosib qatnashdilar. Mohir sportchi aka-opalarimiz 11 ta oltin, 22 ta kumush va 23 ta bronza, jami 56 ta medallar shodasi bilan qatnaganlarida yurtimizda haqiqiy to'y bo'lib ketdi.

Men ham sportning futbol turi bilan 6 yoshimdan buyon shug'ullanib kelaman. Jamoamiz bu yil shahar chempionatida 1-o'ringa, O'zbekiston birinchiligi musobaqasida esa 3-o'ringa loyiq deb topildi. Bugun Osiyo o'yinlarida faxrli o'rinlarni egallagan sportchi aka-opalarimiz ham xuddi biz kabi bolaligida mamlakat chempioni bo'lishgan. Bizning shiorimiz ham baland cho'qqilarga erishib, O'zbekistonimiz sharafini yuksaklarga ko'tarishdir.

**Sardor SODIQOV,**

*Mirzo Ulug'bek tumanidagi 248-maktabning 7-sinf o'quvchisi*



## USTOZ HAM BO'SH KELMADI

144-maktabimizda sport bilan doimiy shug'ullanib, murabbiy Shahlo Norqulovadan sport gimnastikasining boshlang'ich saboqlarini olmoqdamiz. Boks, shaxmat, shaxka va yengil atletika to'garaklariga 45 nafar o'quvchilar qatnaydi. Ular «Umid nihollari» tuman bosqichida ishtirok etib, yuqori natijalarni qo'lga kiritdilar.

Yaqinda maktabimizning musiqa fani o'qituvchisi Nargiza opa Madrahimova oilasi a'zolari bilan sport musobaqasida qatnashib, tuman va shahar bosqichlarida munosib o'rin egallashdi.

**Shohista NAVRO'ZOVA, 5-«V» sinf o'quvchisi**



## BEFARQ BO'LMADI

Xolmurod sizning tengdoshingiz. U hozir 8-sinfda tahsil oladi. Bir kuni mashg'ulotga o'tlanayotgan akasidan: «Aka, meni ham sport zaliga olib boring», deya iltimos qildi. Shoshilib turgan akasiga bu gap avvaliga unchalik yoqmad. Ammo sportchi bo'lishni orzu qilayotgan ukasiga befarq ham bo'lolmadi. Shu tariqa 8 yoshli jajji bolakay Xolmurodjon sportning muay-tay turi bo'yicha dastlabki mashqlarini boshladi. Murabbiy Bahodir aka G'ulomov har bir bolani iloji boricha sport zalida olib qolishga harakat qiladi. Shulardan biri Xolmurod Vahobov ham ustoz maslahatiga amal qilib, kam bo'lmadi. Ayni damda tengdoshingiz O'zbekiston chempioni va bir necha musobaqalar g'olibiga aylandi. Darvoqe, Xolmurodjon sportdan topgan kuch-quvvatini shifokor bo'lib, elga xizmat qilishga sarflamoqchi.

**Nigora SOBIROVA,**

*Shayxontohur tumanidagi 167-maktabning  
biologiya fani o'qituvchisi*



**Yakkasaroy tumanidagi  
160-maktab o'quvchisi Gulsanam  
Yo'ldosheva sinxron suzish bo'yicha  
respublika chempioni**

## Barkamol avlodmiz mangu poydevor, Yurtga jonin fido aylashga tayyor!

### VAQT

Vaqt oqar suv kabidir,  
U hech qachon to'xtab qolmas.  
Bugunimiz ertaga tarix,  
Uni hech kim qaytara olmas.



Nurjahon UBAYDULLAYEVA

Dinara  
ZOHIROVA,  
Sergeli  
tumanidagi  
301-maktabning  
9-sinf  
o'quvchisi



### OLTIN BOLALIK

Yoshligin doimo qo'msaydi buvim,  
Men esa istayman katta bo'lishni.  
Sho'xligin eslaydi doimo buvam,  
Men yana o'ylayman katta bo'lishni.

Yoshlikda o'ylar ham turfa xil bo'lar,  
Qariganda balki qadri bilinar.  
Vaqtning ketsa, baxting ketadi,  
Buni balki keksalar bilar.

Bolalik, orzular poyonsiz dunyo,  
Yoshlarga hayot ham rang-barang go'yo,  
Xato qilsam agar kechirgin meni  
Oltin alishmam yoshligim seni.

Gullarga burkanib baxtli bolalik,  
Qalblarga behisob quvonch keltirar.  
Insonlar qalbiga mehr ulashib,  
Baxtiyor yashashga undaydi ular.

Unutmayman aslo seni, bolalik!

Anvar  
YO'LDOSHEV,  
Gidrometeo-  
rologiya  
kasb-hunar  
kolleji  
talabasi



### DO'STINGGA AYT

Masrurlikdan qalbing quvonsa,  
Shodligingdan ko'zlaring yonsa,  
Quvonchingga sherik bo'lar do'st,  
Do'stingga ayt, sen do'stingga ayt.

Xafa bo'lsang biror yomondan,  
Ranging farqsiz qolsa somondan.  
Dildan dardkash bo'lar yaxshi do'st,  
Do'stingga ayt, sen do'stingga ayt.

Yoqib qolsa biron-bir go'zal,  
Unga atab yozsang ko'p g'azal.  
Ishq dardi ham do'st bilan afzal,  
Do'stingga ayt, sen do'stingga ayt.

Sirdosh bo'lar yaxshi do'st mudom,  
Dildosh bo'lar yaxshi do'st mudom.  
Biron gaping bor bo'lsa yonib,  
Do'stingga ayt, sen do'stingga ayt.

Nigora  
ASHUROVA,  
Mirzo Ulug'bek  
tumanidagi  
121-maktabning  
8-sinf o'quvchisi



### YURTIMIZ POSBONLARI

Ona zaminni asrar,  
Shu yurtning o'g'lonlari.  
Tun-u kun sergak turar,  
Yurtimiz posbonlari.

Bir siqim tuprog'ini,  
Berib qo'yimas birovg'a.  
Taslim bo'lmas yengilmas,  
Javobi yo'q so'rovga.

Ona Vatan sha'nini,  
Jonidan ustun bilar.  
Kerak bo'lsa jonini,  
Ayamay fido qilar.

Yurtimiz posbonlari,  
Elimiz o'g'lonlari.



Dilnoza  
TILLABOYEVA,  
Hamza  
tumanidagi  
206-maktabning  
7-sinf o'quvchisi




### TUSH

Dorbozlarday tortib sim,  
Asta-asta yurdim jim.  
Qo'lga olib tayoqni,  
Simga qo'ydim oyoqni.  
Ancha hushim yoyilib,  
Ketdim birdan toyilib...  
Uyg'onibman qarasam,  
Qo'lga kirganday tikan,  
Xayriyat, tushim ekan!

### QULAY PAYT

«Qani, ayting-chi qay payt  
Olma terish uchun soz?»,  
O'rnidan turib Aziz  
Dedi: «Bu menimcha yoz».  
Qosim dedi: «Oy chiqqach,  
Shomda quyosh botganda».  
Nozim dedi: «Eng zo'r payt -  
Bog'bon uxlab yotganda».



Mahliyo  
JANONMIRZAYEVA,  
Bektemir  
tumanidagi  
292-maktabning  
4-«A» sinf  
o'quvchisi



### BAXTIMIZ QOMUSI

Quloq soling do'stlarim,  
So'zim bordir sizlarga.  
Bir qonun bor - himoya,  
Bo'lar siz-u bizlarga.  
Unga asos qilingan,  
Inson sha'ni, nomusi.  
Ertamiz kafolati,  
U baxtimiz qomusi.

Sadoqat  
XATAMOVA,  
poytaxtimizdagi  
181-maktabning  
9-«B» sinf  
o'quvchisi



### JANNATMAKON O'LKAM

Bunchalar go'zaldir yurtim, jamoling,  
Har kun ravnaq topib borgay kamoling,  
Mudom abadiydir gul istiqboling,  
Jannatmakon o'lkam, baxting kuylayman.

Barkamol avlodmiz mangu poydevor,  
Yurtga jonin fido aylashga tayyor,  
Faxrlansang arzir bolam deb ming bor,  
Jannatmakon o'lkam, baxting kuylayman.

Bizning tayanchimiz faxrimiz o'zing,  
Ko'klarda porlagan taxtimiz o'zing,  
Eng oliy, muqaddas baxtimiz o'zing,  
Jannatmakon o'lkam, baxting kuylayman.

Ta'rifing kuylashga ojizdir tillar,  
Yangi so'z aytmoqni izlaydi dillar,  
Senga talpinadi barcha ko'ngillar,  
Jannatmakon o'lkam, baxting kuylayman.

Qo'linga daftar-u qalamim olib,  
Dilga baxtiyorlik shuurin solib,  
Yuribman gullaring mehridan qonib,  
Jannatmakon o'lkam, baxting kuylayman.

# MASKANIMNING «TUG'ILGAN KUN»I

Men har kuni maktabimga o'zgaicha ko'ling bilan boraman. Biri-biridan qiziqarli darslar, ta'limlar, ta'garak mashg'ulotlari. Bu qo'choq qayoi maktabda o'qirgan, deya qo'ng'ayusizmi? Keling, yaxshisi maktabim haqida batafsil gapirib beray.

1985-yilda foydalanishga topshirilgan Bektemir tumanining «Binokor» mahallasida joylashgan 292-maktabimizda 569 nafar o'g'il-qiz tahsil oladi. Ularga 40 nafar mehri daryo ustozlar ilm sirlarini o'rgatib kelishadi. Darsdan bo'sh vaqtimiz maktabimiz qoshida faoliyat ko'rsatayotgan 15 turdagi fan to'garaklari, 4 ta sport to'garagi, badiiy gimnastika, xor, folklor guruhlari sermazzun va unumli o'tadi. Shuningdek, bilim maskanimizda filiallari ochilgan tuman o'quvchilar ijodiyot markazining «Yosh rassom», «To'qish texnikasi», tuman o'quvchilar texnik ijodiyot markazining «Harakatli o'yinchoqlar» to'garaklari ham doimo o'quvchilar bilan gavjum.

Shu kunlarda maktabimiz



## RASSOM BOLA

Ulug'bek Meyrbekov ham shu maktabning 4-«A» sinfidagi a'lo baholarga tahsil oladi. Uni maktabda rassom bola, ham deyishadi. Bolaligidanoq tasviriy san'atga mehr qo'ygan Ulug'bek maktab miqyosida o'tkaziladigan «Yosh rassomlar» ko'rik-tanlovlari faol ishtirok etib, «Maqto'v yorlig'i» bilan taqdirlanib keladi. «Kamalak – 2009» milliy an'analar va zamonaviylik tasviriy san'at festivalida faol qatnashib, «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandi.

Yaqinda maktab miqyosida bo'lib o'tgan «Ertaklar – yaxshilikka yetaklar» mavzusidagi rasmlar tanlovida I-o'rinni egallab, ustozlari ishonchini oqladi.



o'zining 25 yillik yubileyini nishonlamoqda. Eng quvonarlisi, bu tadbir konstitutsiya bayramimiz tantanalari bilan qo'shaloq bayram tarzida nishonlanmoqda. Maktab «Kamalak» bolalar tashkiloti faollari tashabbusi bilan har bir sinf o'quvchilari maktab tarixiga oid turli ma'lumotlar, suratlar yig'ib, albomlar, bukletlar, devoriy gazetalar tayyorlashyapti. Bu ma'lumotlar hademay maktab tarixi muzeyidan munosib o'rin oladi.

Yubiley arafasida maktabimizda uzoq yillar samarali mehnat qilgan, ayni damda keksalik gashtini surayotgan A.Senk, Z.Akbayeva, O'.Egamberdiyeva, X.Hakimova, D.Xudoyberdiyevlar bilan qiziqarli uchrashuvlar, davra suhbatlari uyushtirilmoqda.

Bilim maskanimizda ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazib turiladi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Sayyora opa Polvonova tashabbusi bilan tez-tez shahrimizdagi turli muzeylarga, tarixiy joylarga, madaniy maskanlarga ekskursiyalar uyushtiramiz. Ayniqsa, ko'hna va navqiron Samarqand shahriga qilgan sayohatimiz bizda bir o'lam taassurot qoldirdi.

Yurtimiz tarixini o'rganish menga zavq bag'ishlaydi va qalbimda shu yurt farzandi ekanligimdan faxr va iftixor tuyg'ulari jo'sh uradi. Ana shu faxr tuyg'usini «Yangi avlod» bolalar festivalining shahar bosqichida ishtirok etib, laureat bo'lganimda yanada ko'proq his etdim.

**Madina RIZAYEVA,**  
Bektemir tumanidagi  
292-maktabning 4-«B» sinf  
o'quvchisi



Ikki sport zaliga ega bo'lgan maktabda yosh sportsevarlar muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadilar. Sog'lom tan, sog'lom fikr esa yutuqlar omilidir. Shu sababdan ham o'quv-

116-maktab Uchtepa tumanidagi ibratli bilim dargohlaridan biri sanaladi. 2216 nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya olayotgan mazkur bilim dargohiga ular uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilayotgan, oliy toifali o'qituvchi Nargiza opa Xonto'rayeva rahbarlik qiladilar.

## MAKTABDAGI «MAKTABDOSH»

chilar fan olimpiadalarida, turli Respublika ko'rik-tanlovlari ishtirok etib, yuqori o'rinlarni egallab kelishmoqda.

«Yil maktabi» ko'rik-tanlovining shahar bosqichidagi g'oliblik ham ustoz-u shogirdlarning hamjihatligi, izlanish va intilishlari mahsulidir. Maktabda «Bunyodkor yoshlar» bog'ining yashnab turishida ular-

ning hissasi katta. Ayniqsa, «Mahallalardagi umumta'lim hududi» nominatsiyasida I-darajali Diplom bilan taqdirlangan maskan o'quvchilari bundan yanada zavqlanib, navbatdagi ezgu ishlarni amalga oshirishga bel bog'lamoqdalar.

Quvonarlisi, bunday namunali ishlar maktabning «Maktabdosh»

gazetasida o'z aksini topyapti.

Aziz o'quvchilar, Sizing maktabingizda ham bu kabi ibratli ishlar amalga oshirayotganiga aminmiz. Bu haqda bizga, albatta, yozib yuboring.

ZUBAYDA



Suratda: maktab rahbari  
Nargiza Xonto'rayeva



## «BOSH QOMUSIMIZ SAHIFALARIDA» AYLANMA KROSSVORDI



Aziz muxlis! Quyidagi so'zlar javoblarini topib, shaklda belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida yozish bilan «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi» haqidagi bilimingizni sinab ko'ring.

1. Konstitutsiyamizning 41-moddasidan: «... ishlari davlat nazoratidadir». 2. Davlat ramzlaridan biri. 3. Oliy Majlis Parlamenti raisi. 4. Bosh qomusimizning 1-moddasidan: «O'zbekiston... demokratik Respublika». 5. Konstitutsiyamizning XXIII bobi nomidan: «... tizimi». 6. Shaharning ma'lum bir hududini o'z ichiga olgan va aholisi bir jamoaga birlashgan, o'z-o'zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy hududiy qismi. 7. Mustaqil davlatimiz parlamenti - Oliy Majlisining ikki tarkibiy qismining har biri. 8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining saylab qo'yilgan vakili. 9. Konstitutsiyamizning 37-moddasida ta'kidlangan har bir shaxsga taalluqli huquqlardan biri. 10. XV bob nomidan: «Ommaviy ... vositalari». 11. Atoqli o'zbek shoiri, «O'zbek qomusi» she'ri muallifi. 12. «Oila» bobidan: «Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarning yasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan ...

faoliyatlarini rag'batlantiradi». 13. Sudlov muassasalari tizimi. 14. 40-moddadan: «Har bir inson malakali ... xizmatdan foydalanish huquqiga ega». 15. Qomusimizning uchunchi bo'limi nomidan: «... va shaxs». 16. Konstitutsiyamizning 56-moddasiga asosan, biror maqsadda tuzilgan ixtiyoriy birlashma. 17. Vatanimizdagi yirik ma'muriy hududiy bo'linma. 18. «Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar» bobidan: «Bepul umumiy ... olish davlat tomonidan kafolatlanadi». 19. Bir shaxsga davlat nomidan faoliyat olib borish uchun berilgan huquq. 20. Qomusimizning 3-moddasidan: «O'zbekistonning ... chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir». 21. XXV bob nomidan: «Moliya va ...». 22. 36-moddadan: «Har bir shaxs ... bo'lishga haqli». 23. Mamlakatning harbiy qudrati. 24. Mamlakatimiz qonunchilik palatasining navbatdagi yig'ilishi. 25. Biror sohaga oid qonunlar majmui. 26. 6-moddadan: O'zbekiston Respublikasining poytaxti - ... shahri.

### MUAMMONOMA

Avvalo quyida ta'riflari bayon etilib, raqamlarda ifodalangan kalit so'zlarni toping.

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinadigan hujjat - 16, 2, 3, 12, 3.

2. Bosh qomusimizda fuqarolarga berilgan imkoniyatlar majmui - 13, 12, 16, 12, 16.

3. Vatanimizdagi siyosiy partiyalardan biri - 6, 1, 2, 4, 6, 9.

4. O'zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik va ijro hokimiyati rahbari - 13, 2, 7, 5, 10.

5. Ma'lum bir maqsad asosida tomonlar o'rtasida tuzilgan kelishuv hujjati - 11, 5, 9, 5, 10.

6. Amalga oshirilishi ko'zda tutilgan ish, topshiriq - 8, 6, 15, 5, 14, 6.

Endi kalit so'zlari javoblari asosida shakl markazidagi raqamlarda yashiringan muammonomani hal eting. Bunda ulardan Ona vatanimiz bosh qomusining XIV bobida qayd etilgan so'zlarni bilib olasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi

Qadimda bir bola bo'lgan ekan. U juda kambag'al oilada kamol topibdi. Ulg'ayib, nonvoylik kasbini tanlabdi. Bir kuni mamlakat shohi yangi farmon chiqaribdi. Farmonda shunday yozilgan ekan: «Kimki meni eng shirin ne'mat bilan siylasa, u bosh-oyoq sarpo bilan taqdirlanadi».

Odamlar podshoh in'omiga sazovor bo'lish uchun turli tansiq taomlarni saroyga keltirishibdi. Lekin ularning hech biri shohga yoqmad. Shunda nonvoy yigit ham baxtini sinab ko'moqchi bo'lib, saroyga ikkita issiq non olib boribdi. Saroyni bir zumda issiq nonning xushbo'y ishi tutib ketibdi. - Mana bu ne'mat menga juda yoqdi. Yigitni

bosh-oyoq sarpo bilan siylanglar, - debdi shoh. - Yana biror istaging bormi?

Shunda nonvoy shohga shaxmat o'ynashni taklif qilibdi. Shoh qanchalik usta bo'lmasin, unga yutqazibdi.



- Tila-tilagingni, bajo keltiraman, - debdi shoh hayratini yashirolmay. Nonvoy biroz o'ylanib: - Mana shu shaxmat taxtasidagi birinchi katakka 2 ta, ikkinchisiga undan 2 barobar, uchinchisiga 3



barobar va hokazo guruch qo'yishlarini so'rayman, - debdi nonvoy.

Oradan bir kun o'tib xazinabon shohga: - Bizning saroyda buncha guruch yo'q, - debdi.

Shoh nonvoyning aqliga tan berib, qoyil qolibdi.

**Bobur MIRFAYOZOV,**  
Xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktabining 5-«G» sinf o'quvchisi

### OLISLIK


O'qituvchi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini sinash uchun so'radi:

- Aytgich-bolalar, Xitoy bizdan uzoqmi yoki oy?

- Xitoy! - bir ovozdan javob berishdi o'quvchilar.

- Nima uchun? - so'radi ustoz.

- Chunki Xitoyni ko'rmaymiz, oyni esa har kuni ko'ra olamiz...



Mana, Toshkent shahriga bag'ishlangan maxsus son bilan ham tanishdingiz. U sizga manzur bo'ldi, degan umiddamiz.

Gazetamizni kuzatib boring, navbatdagi safarimiz balki Sizning viloyatingizga bo'lar.

### MUSIQAGA QIZIQISH

O'qituvchi sinfga kirib o'quvchilardan so'radi: - Bolalar, oranzda musiqa chalishga qiziqadiganlar bormi?

To'rtta o'quvchi o'rman turdi. - Tezda pianinoni ko'tarishga yordam berib yuboringlar!..

M.UBAYDULLAYEVA tayyorladi



### Maxsus sonni tayyorlaganlar:

T.HAYIT,  
F.JALILOVA,  
F.ADILOVA,  
M.MADRAHIMOVA,  
Yu.ABDULLAYEV,  
A.KARIMOV,  
G.ORIFJONOVA,  
O.ORIPOV.

BOSH MUHARRIR:  
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:  
Fazliddin SHOYODGOROV,  
Olovuddin ORIPOV  
Navbatchilar:  
Gulyuz ORIFJONOVA,  
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Avaz MARAHIMOV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

### Manzillimiz:

Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@bk.ru  
www.tongyulduzi.uz  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi - 31687 Buyurtma N: J 632

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

